

**04.09.2023 YILDAGI 0100/502/1/2301712-SONLI
KRYEDITNI QAYTARMASLIK XAVFINI SUG'URTA QILISH BO'YICHA
BOSH SHARTNOMANING ASOSIY SHARTLARI SUG'URTA QILINGAN**

*05.02.2024 yil, 04.03.2024 yil, 27.05.2024 yil, 10.06.2024 yil, 06.02.2025 yil, 25.05.2025 yil, 13.10.2025 yildagi
qo'shimcha kelishuvlar bilan kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarni xisobga olgan holda.*

1-BO'LIM. SUG'URTA OB'YEKTI

Sug'urta ob'ekti bo'lib, Sug'urta qildiruvchining kredit shartnomasi bo'yicha kelib chiqqan, Qarz oluvchining kredit mablag'larini qaytarish va ulardan foydalanganlik uchun foizlarni to'lash majburiyatlarini bajarmasligi va/yoki lozim darajada bajarmasligi natijasida yuzaga kelgan zararlar bilan bog'liq mulkiy manfaatlarini hisoblanadi.

2-BO'LIM. TA'RIFLAR

2.1. Ushbu Shartnomada qo'llaniladigan quyida keltirilgan ta'riflar quyidagi ma'nolarga ega:

Kredit — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik shaxslarga taqdim etiladigan moliyaviy majburiyat, shuningdek jismoniy shaxslarga iste'mol krediti, ipoteka krediti, avtokredit, ta'lim krediti, biznes uchun kredit (yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun), kredit kartalari, ta'minot bilan ta'minlangan qarzarlar (garov evaziga beriladigan kreditlar) hamda mikrokreditlar shaklida beriladigan qarz mablag'larini anglatadi.

Kredit shartnomasi — Sug'urta qildiruvchi ushbu Kredit shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda Qarz oluvchiga pul mablag'larini (kreditni) taqdim etish majburiyatini oladigan, Qarz oluvchi esa olingan pul mablag'larini belgilangan muddatlarda qaytarish va ular uchun foizlarni to'lash majburiyatini oladigan kelishuvni anglatadi.

Sug'urta hodisasi — amalda yuz bergan voqea bo'lib, uning sodir bo'lishi natijasida Sug'urtalovchining Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini amalga oshirish majburiyati yuzaga keladi.

Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar — muayyan Qarz oluvchi va Kredit shartnomasiga nisbatan kreditni qaytarmaslik xavfini sug'urtalash shartnomasini tuzish (Sug'urta polisini rasmiylashtirish) uchun zarur va ahamiyatli bo'lgan barcha ma'lumotlar hamda ma'lumotlarni Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi tomonidan Tomonlarning avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — «AAT») orqali, bir nechta dasturlar o'zaro hamkorligi asosida, API («Application Programming Interface» — «Ilovaning dasturiy interfeysi»)dan foydalangan holda taqdim etishni anglatadi.

Sug'urta polisi (Polis) - Sug'urtalovchi tomonidan har bir Qarz oluvchiga nisbatan Sug'urta qildiruvchi nomiga rasmiylashtiriladigan elektron hujjat bo'lib, u Sug'urtalovchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlaydi. Sug'urta polisi Tomonlarning avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali, Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi o'rtasida elektron axborot almashinuvini ta'minlovchi API dan foydalangan holda rasmiylashtiriladi.

Sug'urta puli — sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchining javobgarligining eng yuqori cheklovini ifodalovchi pul mablag'lari summasi.

Sug'urta mukofoti — sug'urta uchun to'lov bo'lib, Sug'urta qildiruvchi uni Sug'urtalovchiga to'laydi.

Sug'urta tovon — sug'urta hodisasi yuz berganda etkazilgan zararni qoplash uchun Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta puli doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi.

Sug'urta davri — sug'urta mukofoti yoki uning birinchi/navbatdagi qismi o'z vaqtida to'langan taqdirda, sug'urta shartlari amal qiladigan vaqt davri.

Kutish davri — To'lov sanasidan boshlab hisoblangan ketma-ket kalendar kunlar soni bo'lib, ushbu muddat tugashidan oldin mazkur Shartnomaning 3-bo'limida ko'rsatilgan xavf natijasida yuzaga kelgan har qanday zararni qoplash to'g'risida talab bildirish mumkin emas. Kutuv davri 15 (o'n besh) kalendar kunni tashkil etadi. Agar Sug'urta qildiruvchi kalendar yilning 11-12 oylari uchun zararni aniqlasa, kutish davri 5 (besh) kalendar kunni tashkil qiladi.

To'lov sanasi:

1) Kredit shartnomasi ilovasi hisoblanadigan kreditni qaytarish jadvalida belgilangan Qarz oluvchi tomonidan kreditni qaytarish sanalari;

2) Kredit shartnomasi ilovasi hisoblanadigan kreditni qaytarish jadvalida belgilangan Qarz oluvchi tomonidan kreditdan foydalanish uchun to'lanadigan foizlarni to'lash sanasi;

3) Kredit shartnomasida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha kreditni muddatidan oldin undirish vaqtida, bank tomonidan Qarz oluvchiga yuborilgan xabarnoma (e'lon)da ko'rsatilgan kredit va unga hisoblangan foizlarni qaytarish sanasi.

Zarar — sug'urta hodisasi yuz berganda, Qarz oluvchining o'z majburiyatlarini bajarmasligi sababli Sug'urta qildiruvchi olmay qolgan pul mablag'lari summasi bo'lib, u quyidagi tartibda hisoblanadi:

(i) Sug'urta davri mobaynida berilgan kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar, shu jumladan, kreditning kechiktirilgan qismiga hisoblangan foizlar va kredit bo'yicha bajarilmagan majburiyatlarga penyalar hamda qo'shimchalarni ham o'z ichiga olgan, Sug'urta qildiruvchi tomonidan Qarz oluvchidan ololmagan umumiy mablag' aniqlanadi;

(ii) (i) bandida hisoblangan summadan, kreditni qaytarish uchun kelib tushgan va kredit shartnomasiga asosan kreditni kafolatlashning boshqa turlaridan kelib tushgan mablag'lar hamda kredit bo'yicha Sug'urta qildiruvchi tomonidan qonuniy talablari qondirilgan summa chiqarib tashlanadi;

(iii) (ii) bandidagi farq Zarar summasi hisoblanadi.

Zarar sanasi — kutish davrining oxirgi kundan keyingi birinchi kun.

Qarz oluvchi — kreditni olgan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor hamda o'z huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirishga qodir bo'lgan jismoniy shaxs bo'lib, kredit shartnomasiga asosan kreditni o'z vaqtida qaytarish (qoplash) va kreditdan foydalanish uchun foiz to'lash majburiyatini oladi.

3-BO'LIM. SUG'URTA HODISALARI

3.1. Kredit shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarmasligi natijasida sug'urta davri mobaynida Sug'urta qildiruvchiga etkazilgan zararining yuzaga kelishi sug'urta hodisasi hisoblanadi.

4-BO'LIM. SUG'URTA PULI VA SUG'URTA MUKOFOTI

4.1. Har bir Qarz oluvchi bo'yicha sug'urta puli, Sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan va keyinchalik muayyan sug'urta polisining ajralmas qismiga aylanadigan Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va axborotga asosan aniqlanadi.

4.2. Sug'urta tariflari kredit turi (kredit mahsuloti), kreditlash segmenti, ehtimoliy maksimal zarar taxmini va xavf darajasi bahosi asosida belgilanadi. Kredit mahsulotlari bo'yicha sug'urta tariflari Shartnoma ilovasiga muvofiq aniqlanadi.

4.3. Sug'urta mukofoti naqdsiz shakldagi, bir yo'la yoki belgilangan sug'urta davri uchun badallar bo'yicha, Sug'urta qildiruvchi tomonidan Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni AAT orqali yuborgan vaqtdan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 241-moddasiga muvofiq sug'urta mukofotini to'lash majburiyati Qarz oluvchiga yuklatilishi mumkin. Sug'urta mukofotini to'lash kuni deb bankdagi tranzit hisob raqamiga belgilangan miqdorda pul mablag'lari tushgan kun hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotlarini o'z vaqtida Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazilishini ta'minlash majburiyatiga ega.

4.4. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari sug'urta mukofoti bank hisobiga tushgan kundan boshlab kuchga kiradi va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davri mobaynida amal qiladi.

5-BO'LIM. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

5.1. Ushbu Shartnoma Tomonlar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 5 yil muddatga amal qiladi. Biroq, ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugagani, Tomonlarning Shartnoma va berilgan Polislar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarining tugashini anglatmaydi.

5.2. Sug'urta polisi quyidagi holatlarda tugatilishi mumkin:

- uning amal qilish muddati tugashi;
- Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga bo'lgan majburiyatlar to'liq bajarilishi;
- sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra sug'urta xavfi tugatilishi.

5.3. Aniq bir Qarz oluvchiga nisbatan sug'urta polisini muddatidan oldin tugatilgan hollarda, foydalanilmagan sug'urta mukofoti Sug'urtalovchi tomonidan qaytarilmaydi.

6-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Sug'urtalovchi majburiyatlari:

- a) Shartnoma amal qilayotgan davrda ushbu sug'urta turi bo'yicha Sug'urta qildiruvchiga maslahatlar berish;
- b) belgilangan muddatlarda sug'urta polisini berish;
- v) sug'urta hodisasi yuz berganida, kutish davri va Sug'urta qildiruvchidan barcha zarur hujjatlar olinganidan so'ng, sug'urta hodisasini tan olish yoki tan olmaslik to'g'risida qaror qabul qilish. Sug'urta hodisasi tan olingan taqdirda, ushbu Shartnomada belgilangan muddatda Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lash;
- g) Shartnoma amal qilayotgan davrda Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan berilgan ma'lumotlarni maxfiy saqlash, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Davlat organlari va boshqa tashkilotlarga ma'lumot berish majburiyati mavjud bo'lgan holatlardan tashqari;
- d) Sug'urta qildiruvchi sug'urta polisini yo'qotgan taqdirda, sug'urta polisining nusxasini berish.

6.2. Sug'urtalovchining huquqlari:

- a) Sug'urta qildiruvchi bilan kelishilgan holda Shartnomaga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;
- b) Shartnoma amal qilayotgan davrda Qarz oluvchining moliyaviy holati va kreditni qaytarish bo'yicha majburiyatlarni bajarish holati to'g'risidagi ma'lumotlarni Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchidan so'rash;
- v) Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan berilayotgan ma'lumotlarni hamda Shartnoma va Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini tekshirish;
- g) sug'urta hodisasi deb bildirilgan voqeaning sabablari va holatlarini aniqlash, shu jumladan, mazkur voqeaning haqiqatligi va sabablari to'g'risida vakolatli idoralarga so'rov yuborish.
- d) hujjatlarning haqiqiylikiga nisbatan asoslangan shubhalari mavjud bo'lgan taqdirda, ya'ni hujjatlarni rasmiylashtirish va ro'yxatga olish tartibiga rioya qilinishi, muhr va imzolarning haqiqiylikligi, sug'urta hodisasi va zarar miqdoriga oid tasdiqlanmagan tuzatishlar borligi holatlarida, mazkur hujjatlarni taqdim etgan shaxslar yoki

Sug'urtalovchi o'zi tomonidan hujjatni bergan organga qilingan so'rov asosida haqiqiyliги tasdiqlanguniga qadar sug'urta tovonini to'lashni kechiktirish;

e) ushbu Shartnoma amal qilayotgan davrda xavf darajasi o'zgargan taqdirda, shartnoma shartlarini va/yoki qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashni talab qilish. Agar Sug'urta qildiruvchi ushbu Shartnoma shartlarini o'zgartirish va/yoki qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashga qarshi chiqsa, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilish huquqiga ega.

yo) sug'urta tovonini to'langanidan so'ng, Sug'urtalovchidan 5 kun ichida talab qilingan miqdordagi talab huquqlarini Qarz oluvchiga nisbatan Sug'urtalovchiga o'tkazishni talab qilish;

j) Sug'urta qildiruvchi bilan birgalikda monitoringda ishtirok etish, hujjatlar asosida va joyida Qarz oluvchining iqtisodiy faoliyati holatini tekshirish hamda sug'urta polisini imzolashdan oldin kredit shartnomasida nazarda tutilgan bitimlar bo'yicha moliyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rash;

z) ushbu Shartnoma bo'yicha Sug'urta qildiruvchining o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmasligi yoki noto'g'ri bajargan holatda, sug'urta tovonini to'lashdan bosh tortish va/yoki ushbu Shartnomani sud tartibida bekor qilishni talab qilish.

6.3. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

a) muayyan sug'urta polisini rasmiylashtirishda Sug'urtalovchining talabiga binoan, Qarz oluvchi va kredit shartnomasi to'g'risida zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etish;

b) kreditni kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddatda qaytarmaslik holatida, uning yuz berganligi haqida Shartnoma va unda ko'rsatilgan tartibda Sug'urtalovchini o'z vaqtida xabardor qilish;

v) kafillik yoki uchinchi shaxslar mulki (garov) mavjud bo'lganda, sug'urta tovonini to'lash bo'yicha da'vo bildirishdan avval O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq kafilning qarzini to'liq undirish maqsadida garov huquqlarini amalga oshirish;

g) kredit shartnomasi bo'yicha kreditning qaytarilmasligi bilan bog'liq hujjatlarni o'rganish hamda ish sharoitlarini bilgan shaxslardan ma'lumot olish imkoniyatini Sug'urtalovchiga berish;

d) Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'laganidan so'ng, 5 kun ichida talab qondirilgan miqdorda Qarz oluvchiga nisbatan barcha talab huquqlarini Sug'urtalovchiga o'tkazish.

e) zararni keltirib chiqargan shaxs tomonidan qisman yoki to'liq zararni qoplash yoki Qarz oluvchining zararni boshqa yo'llar bilan to'liq yoki qisman qoplashi holatida, ushbu mablag'larni olganligini darhol Sug'urtalovchiga xabar berish;

j) ushbu Shartnoma yoki Sug'urta polisi amal qilayotgan davrda sug'urta hodisasi yuz berish ehtimoliga ta'sir ko'rsatadigan xavf darajasi va sharoitlardagi har qanday muhim o'zgarishlar to'g'risida Sug'urtalovchiga xabar berish;

z) kredit shartnomasi bo'yicha kredit ta'minotidagi o'zgarishlar, jumladan, kredit majburiyatidagi shaxslarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bunday o'zgarishlar sodir bo'lganidan so'ng 7 kun ichida Sug'urtalovchiga xabar berish.

i) Sug'urta qildiruvchining qayta tashkil etilishi yoki likvidasiyasi haqida Sug'urtalovchiga oldindan xabar berish;

k) sug'urta hodisasi alomatlari yuzaga kelganida va kutish davri tugagandan so'ng, ushbu Shartnomada ko'rsatilgan muddat va tartibda Sug'urtalovchiga xabar berish hamda sug'urta hodisasining sabablari va holatlari to'g'risida xulosa qilishga imkon beruvchi hujjatlarni taqdim etish;

l) Sug'urtalovchining so'roviga binoan sug'urta hodisasi sodir bo'lganlik haqiqatini va holatlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan mavjud ma'lumotlarni berish;

m) subrogasiya tartibida Sug'urtalovchiga o'tgan talab huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mavjud hujjatlar va dalillarni topshirish hamda unga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni xabar qilish;

n) Sug'urta qildiruvchining yuridik manzili va bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda, bu haqda Sug'urtalovchiga 10 kalendar kun ichida xabar berish;

o) kredit shartnomasi ijrosiga oid nizo yuzaga kelgan taqdirda, uni hal qilish uchun o'zaro kelishuvga erishish maqsadida bu haqda darhol Sug'urtalovchiga xabar berish.

6.4. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

a) sug'urta polisini yo'qotgan holatda uning nusxasini olish;

b) ushbu Shartnoma va Sug'urta polisiga muvofiq sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini olish;

v) Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonini to'lashdan bosh tortilishga nisbatan sud tartibida shikoyat qilish;

g) Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda Shartnomaga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;

d) sug'urta tovonini olish huquqi yuzaga kelganida, ushbu Shartnomada ko'rsatilgan muddat va miqdorda uni talab qilish;

e) sug'urta muddati mobaynida sug'urta masalalari bo'yicha bepul maslahatlar olish;

j) Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda ushbu Shartnomaga o'zgartishlar kiritish;

z) Sug'urta qildiruvchiga tanlash huquqi berilgan:

- qarzni Qarz oluvchidan undirish bo'yicha chora ko'rish;

- sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda Sug'urtalovchiga zararni qoplash uchun da'vo qo'yish;

i) kreditdan foydalanish monitoringi o'tkazilishidan oldin bu haqda Sug'urtalovchiga xabar berish va uning vakilining monitoringda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash.

7-BO'LIM. SUG'URTA HODISASINI KO'RIB CHIQISH. SUG'URTA TOVONINI TO'LASH

7.1. Sug'urta tovonni kreditni qaytarmagan, to'lanmagan foizlar qismi miqdorida, ammo sug'urta polisi bo'yicha sug'urta pulidan oshmagan holda to'lanadi. Sug'urtalovchi tomonidan zararni qoplash maqsadida qilingan har bir to'lov, sug'urta polisi bo'yicha Sug'urtalovchining majburiyatlarini (sug'urta pullarini) to'langan summaga kamaytiradi. Agar Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchi hisoblagan qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lansa, Sug'urtalovchining sug'urta polisi bo'yicha majburiyatlari sug'urta puli miqdoriga tiklanadi.

7.2. Kutish davri tugaganidan so'ng yuz bergan holatlarda, Sug'urta qildiruvchi 10 (o'n) kun ichida sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risidagi arizani Sug'urtalovchiga topshirishi va quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- sug'urta polisi;
- kredit shartnomasi bajarilishi doirasida Qarz oluvchining kredit hisobvarag'ida hamda to'langan foizlar va penyalari hisobvarag'idagi pul harakati to'g'risidagi bank ko'chirmasi;
- bank tomonidan berilgan, joriy sanagacha Qarz oluvchining hisobvarag'i (depozit hisob)dagi mablag'lar holati haqidagi saldo ma'lumoti;
- AO «ANORBANK»ning vakolatli kredit qo'mitasi yoki organining kreditni «qoniqarsiz» deb tan olish to'g'risidagi majlis protokolidan ko'chirma;
- o'lim to'g'risida guvohnoma;
- ichki ishlar organidan olingan ma'lumot nusxasi yoki O'zR IIV ma'lumot markazidan yoki boshqa vakolatli organdan, kredit shartnomasi amal qilayotgan vaqtda Qarz oluvchining qamoqda bo'lganligi to'g'risida ma'lumot.

7.3. Sug'urtalovchi to'liq hujjatlar ro'yxatini talab qilmasdan sug'urta hodisasini tan olish yoki tan olmaslik to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega.

7.4. Sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida, Sug'urtalovchi uch (3) kalendar kun ichida sug'urta hodisasini tan olish yoki tan olmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi. Sug'urta hodisasi tan olingan taqdirda, Sug'urtalovchi tomonidan ko'rsatilgan kredit shartnomasi va Qarz oluvchi bo'yicha so'ralgan zararning yakuniy miqdori to'g'risidagi tezkor ma'lumotnoma asosida sug'urta hodisasi akti tuziladi.

7.5. Sug'urta tovonini to'lash sug'urta hodisasi akti imzolangan kundan boshlab ikki (2) bank kuni ichida amalga oshiriladi. Sug'urta tovonini to'langan kun sifatida mablag'larning Sug'urta qildiruvchining hisobvarag'ida qabul qilingan kun hisoblanadi.

8-BO'LIM. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Shartnoma bilan belgilangan yoki unga bog'liq masalalar bo'yicha nizo, talab yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar ularni muzokara yo'li bilan hal qilish choralari ko'radilar.

8.2. Agar tomonlar muzokara yo'li bilan o'zaro kelishuvga erishmasa, ushbu Shartnomadan yoki unga bog'liq yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo, kelishmovchiliklar, talablar yoki da'volar, jumladan uni tuzish, o'zgartirish, bajarish, buzish, bekor qilish, tugatish, haqiqiy emasligi, to'liq yoki qisman tuzilmasligiga oid masalalar, O'zbekiston Respublikasi Toshkent iqtisodiy sudi tomonidan hal qilinadi.

9-BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

9.1. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, Tomonlar ushbu Shartnoma doirasida elektron shaklda tuzilgan barcha hujjatlarni (sug'urta polisi, hisob-varaqa, dalolatnoma, ma'lumotlar, hujjatlar va boshq.), ularni qog'ozdagi hujjatlarga tenglashtirgan, qo'l bilan imzolangan va tegishli Tomonning muhri bilan tasdiqlangan, agar ushbu elektron hujjatlar Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra elektron hisob-varaqlar aylanmasi tizimining operatorlaridan biri (ushbu faoliyat bilan shug'ullanish uchun ruxsat olgan axborot vositachisi) tomonidan qayta ishlangan va yuborilgan bo'lsa, barcha hujjatlarning yuridik kuchini kelishib oladilar va tan oladilar.

9.2. "KAPITAL SUG'URTA" AJning internet axborot tarmog'idagi rasmiy sayti: www.kapitalsugurta.uz Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti Sug'urta qildiruvchi va ushbu axborot tizimining operatori bo'lgan Sug'urtalovchi o'rtasida elektron shaklda ma'lumotlar almashinuvi, shu jumladan sug'urta polisini tuzish uchun ariza yuborishni ta'minlash, shartnoma tuzish (sug'urta polisini yuborish), o'zgartirish, muddatidan oldin bekor qilish, sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risida xabar berish, sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi arizalar, ko'rib chiqish bosqichi va natijalari to'g'risida ma'lumot yuborish, sug'urta tovonini to'lovi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot tizimi hisoblanadi.

04.09.2023 yildagi 0100/502/1/2301712—sonli
kreditni qaytarmaslik xavfini sug'urta qilish bo'yicha
bosh shartnomaga 4-ilova

**04.09.2023 yildagi 0100/502/1/2301712 - sonli
kreditni qaytarmaslik xavfini sug'urta qilish bo'yicha
bosh shartnoma doirasida qo'llaniladigan sug'urta tariflari**

№	Kredit mahsuloti nomi	Sug'urta tarifi (sug'urta pulidan foizda)	
		Yagona tarif*	Yillik tarif
1	«Biznes uchun avto» (horijiy valyutada)	6,5%	-
2	«Biznes uchun avto» (milliy valyuta – «so'm»da)	-	1,0%
3	«Biznes uchun ipoteka»	-	1,0%
4	«Biznes ko'magi»	-	3,5%
5	«Avtokredit 3.0»	6,0%	-
6	«Mavjud pul 3.0»	-	1,0%
7	«Biznes uchun mikrocredit»	8,0%	-
8	«Driver»	8,0%	-
9	«Biznes Go»	7,5%	-
10	«Biznes Start»	-	1,0%
11	«Qulay mikroqarz»	4,0%	-
12	«BILLZ»	-	1,0%
13	«Mikrocredit 14»	-	1,0%
14	«Biznes Layt»	-	1,5%

**Har qanday zarar ko'lamini yoki xavf namoyon bo'lish xususiyatidan qat'iy nazar keyinchalik to'g'rilash kiritilmaydigan, to'liq sug'urta muddatiga qo'llaniladigan tarif.*

ДОПОЛНИТЕЛЬНОЕ СОГЛАШЕНИЕ №8
к генеральному договору страхования риска непогашения кредита
№0100/502/1/2301712 от 04 сентября 2023 года

г. Ташкент

«09» июня 2026 года

Акционерное общество «KAPITAL SUG'URTA» (АО «KAPITAL SUG'URTA»), осуществляющее свою деятельность на основании Лицензии зарег. №00010 от 20 января 2021 года, именуемое в дальнейшем «Страховщик», в лице Заместителя генерального директора О. Каюмова, действующего на основании Устава, с одной стороны, и

Акционерное общество «ANOR BANK» (АО «ANOR BANK»), именуемый в дальнейшем «Страхователь», в лице Председателя Правления Ш.С. Акрамова, действующего на основании Устава, с другой стороны, заключили настоящее дополнительное соглашение (далее – «Соглашение») о внесении изменения в Генеральный договор страхования риска непогашения кредита №0100/502/1/2301712 от 04.09.2023г. (далее – «Договор страхования») о нижеследующем:

1. Пункт 5.6. Договора страхования изменить и изложить в следующей редакции:

«5.6. При прекращении страхового риска по обстоятельствам иным, чем страховой случай, Страховщик возвращает часть уплаченной страховой премии, рассчитанной следующим образом:

- если Страхователь обратился о прекращении страхового полиса в течение первого дня начала периода страхования, осуществляться возврат полной суммы уплаченной страховой премии;

- если Страхователь обратился о прекращении страхового полиса в течение 5 (пяти) календарных дней с момента вступления его в силу, возврат осуществляться с удержанием 60% (шестидесяти процентов) из уплаченной страховой премии;

- если Страхователь обратился о прекращении страхового полиса по истечении 5 (пяти) календарных дней с момента вступления его в силу, возврат осуществляться с удержанием 60% (шестидесяти процентов) из уплаченной страховой премии, а также суммы за истекший период страхования.

Возврат страховой премии (ее части) производится в течение 30 (тридцати) календарных дней со дня поступления Страховщику заявления Страхователя об отказе от Договора (полиса) страхования.

При этом, если по Договору (полису) страхования была заявлена претензия о страховом случае, которая подлежит возмещению со стороны Страховщика и/или осуществлена какая-либо страховая выплата, то уплаченная страховая премия возврату не подлежит.

Страхователь вправе отказаться от исполнения Договора страхования в любое время, если к моменту отказа возможность наступления страхового случая не отпала. В данном случае возврат страховой премии (ее части) Страховщиком не производится.»

2. Приложение №4 «Страховые тарифы, применяемые по генеральному договору страхования риска непогашения кредита №0100/502/1/2301712 от 04.09.2023г.» изложить в новой редакции. Новая редакция Приложения №4 прилагается к настоящему Соглашению.

3. Все остальные условия Договора страхования, не затронутые Соглашением, сохраняют свою силу.

4. Настоящее дополнительное соглашение вступает в силу со дня подписания его всеми Сторонами, составлено в двух экземплярах, имеющих одинаковую юридическую силу, по одному для каждой из сторон и является неотъемлемой частью Договора страхования.

5. Подписи и юридические адреса сторон:

СТРАХОВЩИК

АО «KAPITAL SUG'URTA»

Адрес: г. Ташкент, ул. Махатма Ганди, дом 44

Тел.: +998 71 232 02 02

Р/с.: 20216 000 6001 3803 7001

Банк: АО «Anor Bank» МФО: 01183

ИНН: 200 638 670, ОКЭД: 65120

СТРАХОВАТЕЛЬ

АО «ANOR BANK»

Адрес: г. Ташкент, ул. Шахрисабз, дом 85

Тел.: +99 855 503 00 00

Р/с: 2980 2000 5000 0318 3001 МФО: 01183

ИНН: 207 324 986, ОКЭД: 64 190

НДС: 326 010 224 455

За СТРАХОВЩИКА

Заместитель генерального директора

О. Каюмов

подпись



За СТРАХОВАТЕЛЯ

Председатель Правления

Ш.С. Акрамов

подпись

М.П.

